



MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA SHAKLLANISHIDA NOVERBAL KOMMUNIKATSIYANING O'RNI

Jumayeva Muxayyo Akmamatovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti

1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15774150>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 28-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 30-Iyun 2025 yil

KEYWORDS

noverbal kommunikatsiya,
madaniyatlararo

kompetensiya, imo-ishora, yuz
ifodasi, psixolingvistika,
lingvodidaktika.

ABSTRACT

Ushbu maqolada noverbal kommunikatsiyaning madaniyatlararo kompetensiya shakllanishidagi o'rni lingvistik, psixolingvistik va lingvodidaktik asosda tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida Mehrabian, Birdvistell, Ekman, Knapp va Holl, MakKafferti va Stam kabi olimlarning konsepsiyalari asosida noverbal belgilar – imo-ishora, yuz ifodasi, fazoviy masofa va paralingvistik belgilarning o'quvchilarning moslashuvchan muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishdagi roli yoritildi. O'zbekiston ta'lim muhiti misolida interaktiv metodlar va multimodal mashg'ulotlar orqali noverbal belgilarni ongli o'rgatishning samaradorligi asoslab berildi. Maqolada madaniyatlararo tushunmovchiliklarni kamaytirishda noverbal kommunikatsiyani metodik jihatdan rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Zamonaviy globallashtirish jarayonida insonlar o'rtasidagi muloqot doirasi va shakli keskin kengayib, o'zaro axborot almashinuvi turli madaniyat vakillarini bevosita birlashtirmoqda. Bunday sharoitda faqat tilning grammatik va leksik tomonlarini mukammal bilish yetarli bo'lib qolmay, balki muloqotning noverbal qatlamini to'g'ri anglash va ongli tarzda qo'llay bilish ham zaruratga aylanmoqda. Chunki madaniyatlararo vaziyatlarda maqsadga muvofiq signalni yetkazish nafaqat so'zlar, balki imo-ishora, yuz ifodasi, tana holati, fazoviy masofa va ovozning paralingvistik xususiyatlari kabi noverbal belgilar orqali ham amalga oshiriladi. Shu sababli madaniyatlararo kompetensiya tushunchasi zamonaviy lingvodidaktika va psixolingvistika doirasida tor doirada til ko'nikmasi sifatida emas, balki o'quvchining madaniy kontekstda moslashuvchan va samarali muloqot qila olish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli olimlar noverbal signallarning inson muloqotidagi o'rnini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdilar. Masalan, Mehrabianning izlanishlari odamlar o'rtasidagi hissiy axborotning katta qismi so'zlardan tashqari belgilar bilan yetkazilishini raqamli model asosida ko'rsatadi.¹ Shu bilan birga, Birdwhistellning kinestik yondashuvi, Ekmaning yuz ifodalari bo'yicha tadqiqotlari, Knapp va Hallning noverbal signallar tasnifi hamda MakKafferti va Stamning imo-ishora asosida til o'rgatish

¹ Mehrabian, Albert. *Nonverbal Communication*. New Brunswick: Aldine Transaction, 1971.

konsepsiyasi bugungi kunda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish bo'yicha lingvodidaktik yondashuvlarda muhim nazariy asos sifatida xizmat qilmoqda.

O'zbekiston ta'lim muhitida xorijiy til va milliy til o'qitish jarayonida ham o'quvchilarni real muloqotga tayyorlashda noverbal belgilarni o'rgatish zarurati ortib bormoqda. Bu esa shaxsning nafaqat til kompetensiyasini, balki madaniyatlararo tushunmovchiliklarni oldini olishga qaratilgan sotsiokulturologik moslashuvchanligini rivojlantiradi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqola doirasida noverbal kommunikatsiyaning madaniyatlararo kompetensiya shakllanishidagi o'rni lingvistik, psixolingvistik va lingvodidaktik asosda izohlanadi.

ASOSIY QISM

Noverbal kommunikatsiya zamonaviy lingvistika va psixolingvistika tadqiqotlarida inson muloqotining integral qismi sifatida qaraladi. Muloqot jarayonida so'zlar qanchalik muhim bo'lsa, noverbal belgilar — ya'ni imo-ishora (gesture), yuz ifodasi, tana holati, fazoviy masofa (proxemics) va ovozning paralingvistik xususiyatlari ham shunchalik ahamiyatga ega bo'lib, ular birgalikda muloqotning semantik va pragmatik qatlamini shakllantiradi. Mehrabianning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, inson o'z hissiy holatini yetkazishda so'zlardan ko'ra, tana harakati va intonatsiyaga ko'proq tayanadi; masalan, u axborotning qariyb 93 foizi noverbal va paralingvistik belgilar orqali uzatilishini raqamli model bilan izohlagan.²

Ray Birdwhistell noverbal belgilarni tizim sifatida tushuntirib bergan olimlardan biridir. Uning kinestik tizim yondashuvi imo-ishora va tana harakatlarini alohida mustaqil semantik kod sifatida talqin qiladi. Birdwhistellning asosiy da'vosiga ko'ra, har bir noverbal belgining ma'nosi uni kuzatish kontekstiga bog'liq holda shakllanadi. Shu sababli universal imo-ishora degan tushuncha qattiq chegaralangan bo'lib, u milliy madaniyat va ijtimoiy vaziyatga mos ravishda talqin qilinadi.³ Masalan, boshni qimirlatish ayrim jamiyatlarda rozilik belgisi bo'lsa, boshqa madaniyatlarda u qarama-qarshi ma'noga ega bo'lishi mumkin. Shunday farqlarni o'quvchilarga o'rgatish ularni madaniyatlararo vaziyatlarda noverbal signallarni anglash va to'g'ri qo'llashga tayyorlaydi.

Madaniyatlararo muloqotda yuz ifodalari ham noverbal belgilar ichida alohida o'rin egallaydi. Paul Ekman yuz ifodalari va emotsional reaksiyalarni empirik asosda o'rgangan tadqiqotchilardan biri sifatida tanilgan. Uning kuzatuvlarida asosiy hissiy holatlarni aks ettiruvchi yuz ifodalari butun dunyo bo'ylab taxminan o'xshash tarzda tushuniladi.⁴ Bu yondashuv universal hissiy kodlash nazariyasi sifatida tilshunoslikka kirib keldi. Shu bilan birga, yuz ifodalari ham madaniyat kontekstida rang-barang talqin etilishi mumkin: ba'zi jamiyatlarda emotsiyani ochiq ifodalash quvonch va samimiylik belgisidir, boshqalarda esa hissiyotlarni yashirish madaniy norma sifatida qabul qilinadi. O'quvchilar uchun bunday tafovutlarni anglash, yuz ifodasini muloqotning konnotativ qatlami sifatida tushunish madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mark L. Knapp va Judith A. Hallning tadqiqotlari noverbal belgilarni turlarga ajratishning mukammal modelini beradi. Ularning qarashlariga ko'ra, imo-ishora, yuz ifodasi, fazoviy masofa va paralingvistik belgilar alohida guruhlarda o'rganilishi kerak, chunki ular turli

² Mehrabian, Albert. *Nonverbal Communication*. New Brunswick: Aldine Transaction, 1971, 43.

³ Birdwhistell, Ray L. *Kinesics and Context: Essays on Body Motion Communication*. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1970, 39.

⁴ Ekman, Paul. *Emotions Revealed: Recognizing Faces and Feelings to Improve Communication and Emotional Life*. New York: Henry Holt and Company, 2003, 12.

kognitiv va psixologik jarayonlar bilan bog'lanadi.⁵ Fazoviy masofa masalasi madaniyatlararo vaziyatlarda o'ta dolzarb: insonlar o'rtasidagi oraliq masofa har bir milliy madaniyatda turlicha qabul qilinadi. Masalan, O'zbekiston sharoitida oila va yaqin do'stlar bilan muloqotda fazoviy yaqinlik ijobiy baholansa, rasmiy vaziyatlarda oraliq masofani saqlash madaniy norma sifatida qabul qilinadi. Ba'zi Yevropa va Osiyo mamlakatlarida esa bunday oraliq masofa ko'proq shaxsiy hududni himoya qilish belgisi bo'lishi mumkin.

Knapp va Hall noverbal belgilarni sotsiokulturologik va universal qirralar nuqtai nazaridan qiyoslashni tavsiya qiladi. Bu yondashuv, birinchidan, o'quvchilarda universal belgilarni tan olish va kontekstga mos talqin qilish ko'nikmasini rivojlantiradi; ikkinchidan, sotsiokulturologik farqlarni tushunish orqali madaniyatlararo tushunmovchiliklarni kamaytiradi. Masalan, imo-ishora va tana holatini noto'g'ri talqin qilish ba'zida jiddiy muloqot xatolariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun lingvodidaktika bu belgilarni amaliy mashg'ulotlar orqali ongli o'rgatishni maqsadga muvofiq deb biladi.

Scott MakKafferti va Gale Stamning izlanishlari noverbal belgilarni til o'rgatish jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha qiziqarli eksperimental dalillarni beradi. Ular imo-ishora asosida o'rgatish modeli (gesture-based learning) orqali multimodal kodlash (multimodal encoding) mexanizmini tushuntiradi. Imo-ishora yordamida yangi til birligini tushuntirish o'quvchi ongida semantik yadroni mustahkamlaydi va u eslab qolishni osonlashtiradi. Masalan, xorijiy til darsida o'qituvchi yangi fe'l yoki iborani nafaqat talaffuz, balki mos imo-ishora va yuz ifodasi bilan birga tushuntirsa, bu nafaqat leksik birlikni, balki konnotativ qirralarni ham o'quvchi ongida mustahkamlaydi. Bu yondashuv dramalashgan mashg'ulotlar, rol o'yinlari va interaktiv vaziyatlarda yanada samarali bo'ladi.

O'zbekiston ta'lim muhitida xorijiy til va milliy til o'rgatishda ham bu lingvodidaktik yondashuvlarni qo'llash imkoniyatlari kengayib bormoqda. Ayniqsa, dramatzatsiya, rol o'yinlari, diskussiya mashg'ulotlari davomida imo-ishora va yuz ifodalarini ongli o'zlashtirish o'quvchining real muloqot vaziyatlarida o'zini erkin va moslashuvchan tutishini ta'minlaydi. Bunda yoshning psixologik xususiyatlari, idrok darajasi va ijtimoiy tajribasi hisobga olinadi. Masalan, boshlang'ich va o'rta sinf o'quvchilarida noverbal belgilarni faollashtirish ko'pincha o'yin texnologiyalari, multimodal materiallar orqali olib boriladi. Kattaroq yosh guruhlarida esa interaktiv muhokama va ijtimoiy vaziyatga asoslangan rol o'yinlari samarali bo'lishi mumkin.

Noverbal belgilarni o'rgatish jarayonida lingvodidaktik va psixolingvistik asoslar uyg'un holda yotishi kerak. Mehrabianning fikricha, so'zlarning hissiy mazmunini mustahkamlash yoki inkor etishda intonatsiya va tana harakati bevosita rol o'ynaydi. Birdwhistellingning kinestik nazariyasi bu jarayonning kontekstual bog'lanishini ochib bersa, Knapp va Hall tasnifi o'quvchilarga belgilar tizimini tushuntirishda nazariy asos yaratadi. MakKafferti va Stam esa imo-ishorani ongli qo'llash til o'rganishda kognitiv jarayonlarni tezlashtirishini amaliy dalillar bilan tasdiqlaydi.⁶

Shunday qilib, asosiy qism shuni ko'rsatadiki, madaniyatlararo kompetensiya shakllanishi o'quvchining nafaqat grammatika va so'z boyligini, balki muloqotning noverbal qatlamini to'liq idrok etish va boshqarish ko'nikmasiga bog'liqdir. Noverbal kommunikatsiya

⁵ Knapp, Mark L., and Hall, Judith A. *Nonverbal Communication in Human Interaction*. 7th ed. Boston: Wadsworth Cengage Learning, 2010, 9–10.

⁶ McCafferty, Steven G., and Stam, Gale (Eds.). *Gesture: Second Language Acquisition and Classroom Research*. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2008, 27.

muloqotning semantik qatlamini boyitadi, madaniyatlararo tushunmovchiliklarni kamaytiradi va o'quvchining real hayotiy vaziyatda o'zini ishonchli tutishini ta'minlaydi. Shu sababli o'qituvchilar va til o'rgatuvchi mutaxassislar multimodal o'rgatish texnologiyalarini metodik jihatdan izchil qo'llashi, noverbal belgilarni o'rgatishda yoshning kognitiv imkoniyatlarini hisobga olishi zarur.

XULOSA

Yuqoridagi ilmiy asoslar va nazariy dalillar shuni ko'rsatadiki, noverbal kommunikatsiya muloqotning faqat yordamchi qatlami sifatida emas, balki madaniyatlararo kompetensiya shakllanishining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilishi lozim. Mehrabianning izlanishlari verbal axborot bilan bir qatorda imo-ishora, yuz ifodasi va paralingvistik belgilarning hissiy mazmuni yetkazishdagi beqiyos ahamiyatini ilmiy asoslagan bo'lsa, Birdvistellning kinestik tizimi ularni kontekstual bog'lanishda talqin etish zarurligini ko'rsatadi. Ekman universal yuz ifodalarini aniqlab, madaniyatlararo farqlar qamrovini tushuntirib bergan, Knapp va Holl esa noverbal belgilarni tasniflash va ta'lim jarayonida izchil tushuntirish imkonini bergan. MakKafferti va Stamning tajribalari esa noverbal belgilarni ongli o'rgatish o'quvchining multimodal kognitiv jarayonlarini rag'batlantirishi va til birligini samarali o'zlashtirishga yordam berishini amalda tasdiqlaydi.

Bugungi O'zbekiston ta'lim muhitida xorijiy va milliy tilni o'qitishda noverbal belgilarni lingvodidaktik asosda ongli o'rgatish nafaqat kommunikativ kompetensiyani, balki o'quvchining real madaniyatlararo vaziyatlarda moslashuvchanligini oshiradi. Shu sababli pedagoglar va metodistlar dramatisatsiya, rol o'yinlari, interaktiv mashg'ulotlar kabi multimodal metodlarni yanada faol qo'llashi, o'quvchilarda fazoviy masofa, imo-ishora va yuz ifodalarini mos kontekstda boshqarish ko'nikmasini shakllantirishi zarur. Bu esa nafaqat samarali muloqotga, balki madaniyatlararo tushunmovchiliklarni oldini olishga ham xizmat qiladi.

Shunday qilib, noverbal kommunikatsiyani psixolingvistik, lingvistik va lingvodidaktik asosda chuqur o'rganish, o'quvchilarga uning madaniyatlararo farqlarini to'g'ri tushuntirish va real ta'lim amaliyotida integratsiyalash bugungi kunda dolzarb va zarur ilmiy-amaliy yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mehrabian, Albert. *Nonverbal Communication*. New Brunswick: Aldine Transaction, 1971.
2. Birdwhistell, Ray L. *Kinesics and Context: Essays on Body Motion Communication*. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1970.
3. Ekman, Paul. *Emotions Revealed: Recognizing Faces and Feelings to Improve Communication and Emotional Life*. New York: Henry Holt and Company, 2003.
4. Knapp, Mark L., and Judith A. Hall. *Nonverbal Communication in Human Interaction*. 7th ed. Boston: Wadsworth Cengage Learning, 2010.
5. McCafferty, Steven G., and Gale Stam, eds. *Gesture: Second Language Acquisition and Classroom Research*. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2008.